PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

TO`RA SULAYMON ASARLARINING LINGVOSTILISTIK XUSUSIYATLARI

To`xtasinova Sevinch
Buxoro davlat universiteti
Filologiya fakulteti Filologiya va tillarni
o`qitish o`zbek tili yo`nalishi
3-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.24410776

Annotatsiya: Maqolada O`zbekiston xalq shoiri To`ra Sulaymon she'riyatining lisoniy-uslubiy jihatlari tahlil qilingan. Ijodkor uslubidagi xalqona so`zlar, voha she'valariga oid birliklar, turg`un iboralarning badiiy qayta ishlanishi hamda vositalarning (antiteza, tashxis,metafora,sintaktik parallelizm) vazifasi "Tavallo", "Iltijo"misolida yoritilgan.
**Kalit so`zlar:** lingvostilistika, badiiy nutq, xalqchillik, sheva so`zlari, frazeologizm, zidlanish,jonlantirish, uslub.

Abstract: The artictle analyzes the linguostylic features of the poetry of the People's Poet of Uzbekistan, Tura Sulaymon. Using the poems "Tavallo", "Iltijo" as examples,the study highlights the role offolk vocebulary, dialecal units,artistic transformation of phraseological units, and the functions of expressive means (antithesis,personification,metaphor,syntactic parallelism).
Keywords: linguostylistics, artistic speech, folk spirit, dialectisms, phraseologism,antithesis,personification, style.

Kirish. Badiiy matnni lingvostilistik jihatdan tahlil qilish tadqiq qilinayotgan shoir yoki yozuvchi,umuman olganda muallifning uslubini,umumxalq tilidan qay darajada foydalanganini o`rganishda muhim ahamiyatga ega. To`ra Sulaymon ijodini o`rganar ekanmiz , uning asarlarida nafaqat mazmun teranligi, balki tilning jozibasi, jonli so`zlashuv nutqi va baxshiyona ohangga yaqinligi aks etganini ko`ramiz. O`zbek tilshunosligida badiiy matn lingvopoetikasi,lingvostilistikasi doir masalalar ko`plab olimlar,xususan, E.Qilichev, S.Karimov, M.Yo`ldoshev singari tadqiqotchilar tomonidan keng qamrovli o`rganilgan. Shunga qaramay, To`ra Sulaymon she'rlarining lisoniy birliklarning mohiyati, ma'no qirralari, xalq og`zaki nutqi an'analarining badiiy matnda yozma adabiyot me'yorlari bilan qorishib ketishi alohida tahlilga tortilishi zarur. Ushbu tadqiqotdan asosiy ko`zlangan maqsad ham ayni shu masalalar tog`risida to`xtalib, shoirning ba'zi she'rlari asosida uning leksik,semantik,stilistik,frazeologik unsurlarni qo`llashdagi mahoratini ochib berishdan iborat.

To`ra Sulaymon ijodi umumxalq tilining boyliklari, xalq og`zaki ijodi an'analari, shu bilan bir qatorda, mumtoz she'riyat birliklarining sintezlashuvi bilan xarakterlanadi. Mazkur tadqiqot doirasida shoirning "Tavallo" she'ridan parcha keltirilgan bo`lib,badiiy uslubi kompleks tarzda tahlil qilingan.

Nelardandir ko`ngil bo`lib g`ash,
Xam egilib bu egilmas bosh,
Ko`zlarimda qalqib tursa yosh,

Bu holimga berolmay bardosh,
Bir mushtipar onam yig`laydir,
Qolganlari yolg`on yig`laydir.

Eng avvalo, e'tibor berishimiz kerak bo'lgan jihat she'r bandidagi dastlabki to`rt misra qofiyalashuvidir. G`ash-bosh-yosh-bardosh so'zlari o`zaro ohangdosh,ya'ni qofiyadosh leksamalar sanaladi. Beshinchi va oltinchi misralarda esa "yig`laydir" so`zi radifni yuzaga keltirgan bo`lib, butun she'r davomida takrorlanishi asosiy g`oyani ochib berishda xizmat qilgan. Bundan tashqari yuqoridagi parchaning boshidagi to`rt jumla ko`tariluvchi ohangda lirik qahramonning holatini bayon qiladi, so`nggi ikki misra esa xulosalovchi tarzda mantiqiy yakun yasagan.

"Nelardandir ko`ngil bo`lib g`ash" misrasidagi "nelardandir" so`zi orqali ko`nglini xira qilgan sabablarning ko`pligi, mavhumligini, inson boshiga tushishi mumkin bo'lgan har qanday dardni qamrab olish uchun tanlangan. "Bir mushtipar onam yig`laydir" dagi "mushtipar" so`zi emotsional-ekspressiv bo'yoqqa ega epitet bo'lib, bechora,kuyunchak ma'nosidagi so`z onaning farzand dardida qanchalik ezilishi va fidoyiligini bo`rttirib ko`rsatgan. "Yig`laydir" fe'li tarkibidagi "-dir" qo'shimchasi mumtoz adabiyot tiliga xos bo'lib, she'rda harakat-holatning o'zgarmas haqiqat ekanini ta'kidlaydi. Misralarning o'zaro bog'liqligi,bir-birini to'ldira olgani va ohangdorligi yuqoriligi she'rning ta'sir kuchini oshirgan. "Xam egilib bu egilmas bosh" jumlasidagi "egilib bu egilmas bosh" birikmasida oksimoron,ya'ni mantiqiy zidlik borligini ko`rishimiz mumkin. Mag`rur va g`ururli insonning taqdir sinovlari oldida ilojsizlikdan boshi egilishi ta'sirchan uslubda ta'riflangan. Dastlabki misralardagi holatlar zanjiri gradatsiyani(ko`ngil g`ashligi-bosh egilishi-ko`zda yosh qalqishi-bardosh tugashi)hosil qilib,dardning tobora kuchayishini ko`rsatgan.

Tabiat orqali hayot falsafanini aks ettiruvchi "Iltijo" she'ri ham lingvostilistik jihatdan tahlil qilinishga molik.

Bahor ketma mening bog`imdan,
Bukun qay bir yerda qish,qayda xazonrezgilik,
Qaylarda yoz, qayda jondan bezgilik,
Ko`klamning hur nafasi umrga arzigulik,
Bog`siz, bog`bonsiz yerda ne ham qilsin ezgulik...

Yuqoridagi bandda "bahor" tushunchasi shunchaki bir fasl emas,balki inson umrining yoshlik chog`idir. "Xazonrezgulik" esa qish, "jondan bezgilik" kuz singari fasllar timsoli bo'lib, ular odamning umr fasllari bilan mantiqiy parallelizmni yuzaga keltirgan yoki inson kayfiyatining o`zgarishini fasllarga chog`ishtirib tasvirlagan deyishimiz mumkin. Jumladan, parallel tuzilmalar vositasida tabiat o`zgarishlari va inson kayfiyati o`rtasida o`zaro uyg`unlik hosil qilgan. "Bukun qay bir yerda qish,qayda xazonrezgilik" misrasidan anglashiladiki, qaysi bir kishilar hayoti sinovlar, tashvish, g`am-anduhlar qurshovida qolgan bir zamonda lirik qahramon o'zining yoshlik bahoridan ketmasligini yoki boshqacha qilib aytganda qalbidagi bahorning,ya'ni shodlikning so'nmasligini iltijo qilib so`raydi. "Ko`klamning hur nafasi umrga arzigulik" jumlasi orqali shoir yoshlikning nafasi bir umrga arziydigan davr ekanligini aytmoqchi bo`ladi. Bu misraning mantiqiy davomi sifatida yoshlik bahoridan unumli foydalanmagan, bog` yaratmagan, ya'ni umrining qolgan qismiga hozirlik ko`rmagan,behuda narsalarga chalg`igan insonning qalbida ezgulik bo`lmasligini "Bog`siz, bog`bonsiz yerda ne ham qilsin ezgulik" misrasida ifodalaydi To`ra Sulaymon.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, To`ra Sulaymon asarlarining lingvostilistik ahamiyati katta. Ulardagi leksik-semantik ma'no mohiyatlari, mantiqiy izchilik juda kuchli. Shoirning so`z tanlash mahoratida dialektizmlar, jonli so`zlashuv tiliga xos ekpressiv leksemalar yetakchilik qiladi. Shoir oddiy,kundalik so`zlarga ham kutilmagan majoziy ma'no yuklab,she'rdagi badiiylikniva ta'sir kuchimi oshiradi. To`ra Sulaymon ijodidagi til birliklarining estetik va pragmatik imkoniyatlarini yanada chuqurroq o`rganish zamonaviy o`zbek tilshunosligi va lingvopoetika sohalari uchun dolzarb masala sifatida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sulaymon T. Saylanma. -Toshkent: Sharq, 2005.-320b.
2. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. -Toshkent: Fan, 2008.-160b.
3. Qilichev E. O'zbek tilining praktik stilistikasi. -Toshkent:O'qituvchi,1985.-104b.
4. Karimov S. O'zbek tilining badiiy uslubi. -Samarqand: Zarafshon, 1992.-140b.
5. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 3 jildlik. -Toshkent: Akademnashr, 2012.